

LANGUAGE AND THOUGHT. COGNITIVE LINGUISTICS. CONCEPT

Gavharoy Israiljon Kyzi
Scientific Supervisor

Nurmatova Zaxro Nosirjon qizi
Grade 3 Student of Andijan State University

Mo'tabarxon Ozodbek qizi Soibjonova
2nd Year Student of Andijan State University

ABSTRACT

This article is devoted to the analysis of the role of language and thought in the emergence of new fields of modern linguistics.

Keywords: language, thinking, linguistic culture, categorization, conceptualization, concept.

TIL VA TAFAKKUR. KOGNITIV TILSHUNOSLIK. KONSEPT

Ilmiy rahbar: Gavharoy Isroiljon Qizi.
Nurmatova Zaxro Nosirjon qizi.
Andijon Davlat Univerisiteti 3-bosqich talabasi

Mo'tabarxon Ozodbek qizi Soibjonova
Andijon davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy tilshunoslikning yangi sohalarining vujudga kelishida til va tafakkurning o'rni, konseptning tahliliga bag'ishlangan .

Kalit so'zlar: til, tafakkur, lingvokulturologiya, kategoriyalash, konsetualizatsiya, konsept.

Kirish

Til va tafakkur haqida gapirar ekanmiz har ikki tushuncha ham umumiylik kasb etishini ko'ramiz. Ong til bilan bog'liq tarzda ma'lum bir jamiyat a'zolarining ijtimoiy sharoitdagi o'sish va rivojlanishida yaqqol namoyon bo'ladigan hodisa. Ya'niki, ongdagi tushunchalarning o'sib borishi davomida til sathlarining boyishi kuzatiladi yoki aksincha til unsurlarining ortib borishi mobaynida tafakkurda yangi qirralar ko'zga ko'rina boradi. Til va tafakkurning eng oliy namunasi - inson. Insondan quyi qatlam bo'lmish hayvonot va nabotot olamiga to'xtaladigan bo'lsak, hayvonlardan ham farqli o'laroq yuqoridagi so'zning sharhida na tafakkurga, na tilga bog'liqligi borligini ko'ramiz. Hayvonlarga keladigan bo'lsak, unda til hamda tafakkur ma'lum darajada rivojlangan, holos. Hayvon tafakkuri o'ta jo'n bo'lib, uning asosiy vazifasi harakat qilishda, yashash uchun ayrim narsalarni o'zgartirishda, berilgan buyruqlarni anglashida va shu asosida kechuvchi jarayondagi ong kabi bir qancha vazifalarni bajarishda ishtirok etadi. Mustaqil ravishda fikrlash borasida ham real hayotda ko'rganimiz singari hech bir mahluqot insondek polifunksionallikda foydalana olmasligi ma'lum bo'ladi. Til - onnga tashqaridan ta'sir ko'rsatadigan vositalardan biri. Uning natijasida tafakkurdagi konsept va tushunchalar zahirasi boyiydi, yangi assotsiatsiyalar uyg'onadi. "Hayvonlarni "o'z tili" bor, ular ham o'zaro muloqotda ana o'sha tildan foydalanadi", - degan so'zlar ahyon-ahyonda bo'lsa-da qulog'imizga

chalinishi bor gap. Bu ma'lumot qanchalar to'g'ri ekanligini zoolog tadqiqotchilar ilmiy ishlariga qoldirgan holda biz o'z sohamizga bog'liq bo'lgan qirralarini ochib berishga harakat qilsak.

Muhokama

So'z shakl va ma'no izchilligidan tarkib topgan hodisa. Shaklsiz ma'no, ma'nosiz shakl mavjud emas. Hayvonlar tafakkuriga tilning ta'siri haqida gapirar ekanmiz, ular jo'n tafakkurda kechadigan va voqelikka harakat tarzida undovchi so'zlarning tashqi qobig'ini anglab yetadilar. Shu o'rinda aytish kerakki, hayvon ongi so'zning bosh ma'nosi bilan munosabatda bo'ladi va ular uchun so'zning ma'no qirra(semema)lari mutlaqo ahamiyatsiz. Yana bir narsani yodda tutishimiz kerakki, til va tafakkur o'rtasidagi har qanday aloqada ma'lum til madaniyati salmoqli o'rin tutadi. Tafakkurda mavjud bo'lgan har qanday tasavvur va tushuncha-konseptlar so'z vositasida nutqda reallashadi. Kishi o'zining fikr - mulohazalarini boshqalar uchun ovoz chiqarib ifodalab berar ekan, ya'ni fikr individual nutqda tashqi olamga chiqar ekan, buning bilan u shu mulohazalarni o'zi uchun ham ifodalaydi. Fikr borliqda nutq yoki yozuv orqali moddiylashgunga qadar ongda ishlanishi, tilga oid bo'lgan konstruksiyalardan ma'lum maqsad yo'lida keraklilarini tanlab olinishi kuzatiladi. Fikrning shu tarzda so'zlar, leksik, grammatik, sintaktik konstruksiyalar orqali ifodalash, mustahkamlash, fikrni borliqda qayd qilish, diqqatni mazkur fikrning turli o'rinlarida va qismlarida tutib turishga yordam beradi hamda fikrning qismlarini yanada chuqurroq tushunishga imkon tug'diradi. Shu tufayli keng, izchil, sistemali mulohaza yuritish, ya'ni tafakkur jarayonida tug'ilgan hamma asosiy fikrlarni bir - biri bilan aniq va to'g'ri solishtirib ko'rish mumkin bo'ladi. Shunday qilib so'zda fikrni ifodalashda tafakkurning eng muhim zaruriy, mulohazali, mantiqiy bo'laklarga ajratilgan va anglashilgan tomonlari berilgan bo'ladi. Fikrni so'zda ifodalash va mustahkamlash orqali u yo'qolmaydi hamda paydo bo'lishi bilan o'chib qolmaydi. Fikr so'z iboralarida - og'zaki yoki yozma so'z iboralarida mustahkam qayd qilinadi va saqlab qolinadi. Shuning uchun, kerak bo'lganda, mazkur fikrga yana qaytish, uni yanada chuqurroq o'ylab, tekshirib ko'rish va qayta o'ylash davomida boshqa fikrlar bilan solishtirib ko'rish imkoniyati saqlanib qoladi. Shunday qilib, inson tafakkuri til va nutq bilan chambarchas bog'liqdir. Tafakkur zaruriy tarzda moddiy so'z qobig'ida mavjuddir.

Kognitiv lingvistika - lisoniy tasvir vositasida muayyan konsept mohiyatini ochib beruvchi zamonaviy tilshunoslik sohasi. Kognitivlik istilohi ta'rifiga o'tadigan bo'lsak, u o'zbek lingvistik maydonida o'tgan asrning 70 - yillaridan keyin bo'y ko'rsata bordi. Ye.S. Kubryakova, kognitiv fan bilim va ong, bizning ongimizda qandaydir usul bilan reprezentatsiya qilingan, fikrlash ko'rinishida to'plangan hamda ma'lum ma'lumotlar tizimiga keltirilgan odamlarning narsa bilish faoliyati va olamni ko'rish natijalari haqidagi fandır, deb yozadi. Kognitivlik olamning kontseptual tasvirini shakllantirish va til xususiyatida tafakkur jarayoni ehtiyojini ta'minlash hamda borliq haqidagi bilimlarni umumiy ko'rishda berish va saqlashda namoyon bo'ladi. Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslik paradigmasida o'zining mustahkam o'rnini egalladi [1, 34].

Til ko'p qirrali shakl demakdirkim, uning bir qirrasini o'rganish orqali tilshunoslikda yangi bir sohani kashf etish yoxud tadqiq etish mumkin. Shu jumladan, kognitiv lingvistika tilga kognitiv jihatdan yondashib tadqiq etuvchi fan hisoblanib kelinyapti. Til hodisalariga kognitiv yondashuvning rivojlanishi uni bizning ongimiz va aqlimizning kontseptual va kognitiv tuzilishlaridagi ma'lumotlar manbai sifatida tushunishga yordam berdi. Kognitiv yondashuv tadqiqot obyektini umumiyaxlitlash va leksik ma'nodagi tarkibiy qismlarni taqdim etish usullarini kengaytirishga imkon beradi. Kognitiv lingvistikada barcha til jarayonlari insonning bilish faoliyati bilan olamni kontseptuallashtirish va kategoriyallashtirishga xizmat qiladi. Kontseptuallashtirish - bu inson ruhiyatida barcha kontseptlar va

kontseptual tizimni hosil bo'lishga olib keladigan tashqi ta'sir predmetlari (narsalar va hodisalar) ni hayolan qurish , axborotning odamga kelishi va qabul qilinishi jarayoni. Kontseptuallashtirish jarayoni kategoriyalashtirish jarayoni bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'ramiz. Bu uzviy bog'liqlik borliqni bilish natijalarini ma'lum kategoriyalar bo'yicha tartiblashtiradi. Agar kontseptuallashtirish jarayoni kelayotgan axborotni tushununchali tasniflashdan iborat bo'lsa , kategoriyalashtirish ma'lum bir munosabatda namoyon bo'ladigan o'xshashliklar yoki ma'lum darajada xoslik va yaqinlik asosida tavsiflanadigan birliklarning yanada kattaroq sinflarga birlashtirishga yo'naltirilgandir. Ko'rib turibmizki, bu yerda kategoriyalashtirish kontseptuallashtirishga nisbatan kengroq maydonni tashkil qiladi. Ular orasidagi farq - yakuniy natija .

Kognitiv lingvistikaning asosiy birligi – konsept . Kognitiv lingvistikaning asosiy kategoriyalari esa kontsept, kontseptualizatsiya, kategoriyalashtirish, kontsept doirasi va boshqalar. Shunga ko'ra, kognitiv tilshunoslikning barcha muammolari uning asosiy kategoriyalari yoki olam tasviri vositasida kategoriyalar bilan bo'lgan munosabat atrofida aylanadi. Dastlab kontsept tushuncha so'ziga sinonim sifatida qabul qilindi, bu nazariya o'zini oqlamagach esa kontsept va tushuncha terminlarini asta - sekin farqlash boshlandi. Konseptning o'zi kontseptual, falsafiy, ma'no anglatadi. Umumlashtirilgan nomlar ostidagi kontseptlar qadimiy davrlardan faylasuflarni jalb qilgan shundandir. Buni yunon faylasuf olimi Platonning asarlarida ham ko'rish mumkin. Ruscha matnlarda kontsept terminidan to'liq foydalanish XX asrning 80- yillarida boshlandi, buning natijasi o'laroq rus tilshunosligida yo'nalishga bag'ishlangan bir qancha kitoblar, shujumlardan, antalogiyalar (Антология концептов. Под ред. В. И. Красика, И. А. Стернина. Том 1 . Волгоград Парадигма, А 21 2005. - 352 С; Антология концептов. Под ред. В. И. Красика, И. А. Стернина. Том 2. Волгоград Парадигма, А 21 2005. - 356 С...)) nashr etildi. O'zbek lingvistik maydonida esa u 90 – yillarda ko'zga ko'rina bordi. Shu bilan birga, ko'pgina tilshunoslar zamonaviy tilshunoslikdagi kontsept tushunchasiga ko'p murojaat qilyapti. Ye . S. Kubryakova ushbu tushunchani - olamning barcha tasviri , miya , til va kontseptual tizim , mental leksik (so'z) xotiraning tezkor va mazmuniy birligi , deb izohlaydi. [4 , 8] Z. D. Popova va I. A. Sternin fikriga ko'ra , kontsept - bu o'zining turli belgilari va qatlamlarini faollashtirib, turli tomonlar bilan buriladigan fikrlar faoliyati jarayonidagi majmuaviy fikrlash birligidir . Kontseptning bu belgilari va qatlamlari tilda til ishorasiga ega bo'lmasligi yoki bir yoki o'sha so'z turli muloqot sharoitlarida kontseptning turli belgilarini reprezentatsiya qilishi mumkin . [5, 14] So'z bir necha asosiy kontseptual belgilarni berishi mumkin, ammo kontseptni to'liq namoyon qilmaydi . U kontseptual bilimga kirish vositasi, konseptning bir qirrasini, go'yoki inson uchun kontseptni - ochadigan va fikrlash faoliyatida ulardan foydalanishga imkon beradigan kalit hisoblanadi. O'zbek tilshunoslari N. Mahmudov va Sh. Safarovlar kognitiv lingvistika va konsept termini haqida o'z ilmiy qarashlarini ifodalaganlar [Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. “Сангзор” нашриети, 92 – бет. 2006.]

Xulosa

Bizning fikrimizcha, konsept – inson va madaniyat o'rtasida aloqa o'rnatuvchi mental element. Shuning uchun ham u tushunchaga nisbatan ancha keng bo'lib, ushbu istilohni tushuncha bilan sinonim sifatida qo'llash to'g'ri bo'lmaydi. Agar konsept talqini masalasida yuqoridagi nazariyaga tayanadigan bo'lsak, yana bir lingvistik yangi soha lingvomadaniyatshunoslikning ham o'rganish obyekti nega endi konsept ekanligiga javob topamiz. Chunki bu soha ong, til va madaniyat liniyalari tutashgan nuqtada paydo bo'lgan.

Ongda tashqi ta'sir natijasida tushunchalar zanjir halqachalari singari yakka tartibda paydo bo'la boradi. Ushbu halqachalar til sistemasi vositasida paydo bo'lgani bois o'zaro zidlanish va birikish tamoyillariga-da bo'ysunadi. Ma'lum bir ta'sir (til yoxud boshqa bir sezgi a'zolari orqali) onnga yetib kelgach avtomatik ravishda ana shu halqachalardan mavjud va keraklilari o'zaro birikib kognitiv assotsiatsiya paydo etadi. Masalan, kognitiv lingvistika - til, ong, tushuncha, borliq, jamiyat...; yoki kuz - xazonrezgi, yomg'ir, iliq havo, hosil, zarg'aldoq...

Demak, kontsept tildan mustaqil ong elementidir. Inson so'zlarni ularnig ma'nosi darajasida emas, balki ularning ma'nosi beradigan mazmun darajasida, ya'ni kontseptlar darajasida egallaydi. So'zlarning ma'nosi ushbu ma'nolar ortida turadigan ma'lum kognitiv tuzilishlar bilan o'zaro bog'liq va ularni tushunishni ta'minlaydi. Tilning ushbu kognitivlik xususiyati so'zlar ma'nosining universalligi bilan izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Рохатой Рахматжон кызы Джораева ЗНАЧЕНИЕ ЯЗЫКОВО-МЫСЛИТЕЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ // Наука и образование. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/til-va-tafakkur-munosabatlarini-ahamiyati>(дата обращения: 30.05.2022).
2. To'xtasinova N.R. Uyat" konsepti tadqiqi. НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2021 йил 2-сон . Pp. 361-364.
3. Кубрякова Е. С. Начальные этапы становления КОНГВИТИзма : лингвистика , психология , когнитивная наука . Вопросы языкознания . №2 , 1994г . стр . 34 .
4. Кубрякова Е. С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики. Вопросы когнитивной лингвистики . 2004г . , №1 стр . 8 .
5. Maxmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab . O'zbek tili va adabiyoti . Toshkent , 2012 , 5 - son .
6. Попова З. Д. , Стернин И. А. Когнитивная лингвистика . Москва , 2007. стр . 14. 5. Safarov Sh . Kognitiv tilshunoslik . Jizzax . Sangzor
7. NRQ To'Xtasinova, MTOQ Soibjonova - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
8. Mo'tabarxon Ozodbek qizi Soibjonova. (2022). THE CONCEPT OF SHAME IN THE WORKS OF ABDULLAH WRATH (BASED ON ABDULLAH QAHHOR'S STORY "THE WOMAN WHO DIDN'T EAT RAISINS"). <https://doi.org/10.5281/zenodo.6635466>